

**SOYA DONI MOYDORLIGIGA EKISH MUDDATI VA ME'YORLARINING TA'SIRI.****ВЛИЯНИЕ СРОКА И НОРМЫ ПОСЕВА НА УРОЖАЙНОСТЬ ЗЕРНА СОИ.****THE EFFECT OF SOWING TIME AND RATE ON THE YIELD OF SOYBEAN GRAIN.****Ishmuratov Shavkat Saparovich**

*Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, tayanch doktorant. Toshkent viloyati, Qibray tumani*

**Boltaev Saydulla Maxsudovich**

*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti Agronomiya, qishloq xo'jalik ekinlari seleksiya va urug'chilik kafedrasida dotsenti, q.x.f.d. (DSc)*  
(+998 94 204 49 63)

**Ochildiyev Najmiddin Narbaevich**

*Ingichka tolali paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti direktori. Surxondaryo viloyati, Termiz tumani*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining taqir-o'tloqli tuproq sharoitida ekish muddati va me'yorlarining soya urug'larining yog'liligiga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, urug'lardagi eng yuqori yog'lilik 350 ming dona/ga ekish paytida bo'lgan va 21,5% ni tashkil etgan.

**Аннотация.** В настоящей статье изучено влияние сроков и норм посева на жирности семян сои в условиях такырно-луговых почвы Сурхандаринской области. По результатам исследований наивысшее содержание жира в семенах было при высева 350 тыс. шт/га и составила 21,5 %.

**Annotation.** In the article, the influence of the timing and sowing rates on the fat content of soybean seeds in the conditions of takyr-meadow soils of the Surkhondaryo region was studied. According to the research results, the highest fat content in the seeds was when sown at 350 thousand units/ha and amounted to 21.5%.

**Kalit so'zlar.** soya, yog'lilik, ekish vaqti, urug'lanish darajasi, taqir-o'tloq tuproq

**Ключевые слова.** соевые бобы, жирность, срок посева, норма высева, почва такырно-луговых

**Key words:** soybeans, fat content, sowing date, sowing rate, soil of takyr-meadow

**Kirish.** Ko'pgina davlatlar aholining oqsilga bo'lgan talabini qondirish maqsadida soya ekiladigan maydon hajmini kengaytirish bilan birgalikda, uni yetishtirishning zamonaviy agrotexnologiyalarini ham ishlab chiqmoqda. Uning don hosildorligini oshirish va donning kimyoviy tarkibi, ya'ni moydorligiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilmoqda. Chunki soya doni yetishtirish hajmini oshirish bilan, aholining o'simlik moyiga bo'lgan ehtiyojiga ham yechim topish mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, soya moyi sifat jihatidan boshqa o'simlik moylari bilan solishtirganda birmuncha sifatli hisoblanadi. Masalan, tarkibidagi yod soni va yuqori haroratga chidamliligi kabi ko'rsatkichlari bo'yicha. Bundan tashqari soya moyi inson organizmida to'liq hazm bo'lish xususiyati bilan ham ajralib turadi. Ushbularni hisobga olgan holda olimlar tomonidan soya doni moydorligiga ta'sir etuvchi omillar o'rganib kelinyapti.

V.A. Ovsyannikovning [2] tomonidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekish muddati soya donining moydorligiga ta’sir qiladi. Tadqiqotda soyani ekish muddati kechikishi don tarkibidagi moy miqdorining kamayishiga olib kelgan. Olimning fikricha, bu soyaning gullash-dukkaklash fazasida havo haroratining me’yordan ortiq isishi, yog‘incharchilik miqdorining kam bo‘lganligi bilan izohlaydi.

H.I Kashevarov, A.A Polishuk, N.N Kashevarovalarning [3] ta’kidlashicha o‘simlikning qanday sharoitda o‘sib rivojlanganligi ham soya donidagi moyning miqdoriga ta’sir qiladi. O‘simlikning butun vegetatsiya davrida uning o‘sib rivojlanishi uchun yetarli sharoit bo‘lsa, masalan harorat +29°C bo‘lganda don tarkibidagi moy miqdori yetarli bo‘ladi, haroratning oshib ketishi (+32°C dan yuqori) don tarkibidagi moy miqdorining kamayishiga olib keladi.

X.N. Atabaevaning [1] ta’kidlashicha soyaning yaxshi o‘sishi va rivojlanishi uchun maqbul harorat 18-25 °C hisoblanadi. Issiqlikka eng yuqori talab reproduktiv organlarining shakllanishida (21-23 °C) va gullash davrida (22-25 °C) kuzatiladi. Gullash davrida harorat 17°C dan pasaysa, gullash to‘xtaydi, harorat 14 °C dan pasaysa, don to‘lishish jarayoni to‘xtaydi. Dukkak shakllanish uchun 22-23 °C talab qilinadi, ammo biologik minimum 14 °C ni tashkil qiladi. Soyaning pishishi uchun 18-20 °C yetarli hisoblanadi, ammo 35 °C dan yuqori harorat aunchalar va gullarning to‘kilib ketishiga olib keladi.

**Tadqiqot o‘tkazish uslubi va natijalari:** Tadqiqot ishlari Ingichka tolali paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti tajriba dalalarida, taqir-o‘tloqi tuproqlari iqlim sharoitida olib borildi. Soyaning “Nafis” navi uch muddatda, 20-25 mart, 5-10 aprel va 20-25 aprel sanalarida, 350 ming dona/ga hamda 500 ming dona/ga me’yorda ekilib o‘rganildi.

Dala tajribalari 12 ta variant, 3 qaytariqda, paykallar uzunligi 20 m, eni 2,4 m, 4 qator va qatorlar orasi 60 sm bo‘lib, har bir paykalning umumiy maydoni 48 m<sup>2</sup>, shundan o‘rtadagi 2 ta qator hisobli, chetdagi 2 ta qator himoya qatorlari qilib belgilandi.

Dala tajribalarini o‘tkazish va fenologik kuzatishlar “Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур”(2019) hamda “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (O‘zPITI, 2007) asosida amalga oshirildi. Donning moydorligi GOST 10857-64 “Методы определения масличности” standarti bo‘yicha aniqlandi.

Soya doni tarkibidagi moy miqdoriga ekish muddatining ta’siri bizning tajribamiz natijalarida ham kuzatildi. Masalan, 20-25 mart sanasida, 500 mingdona/ga me’yorda ekilgan variantda don tarkibidagi moy miqdori 20,4% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 5-10 aprel sanasida shu me’yorda ekilgan variantda bu ko‘rsatkich 21,5 % ni tashkil qildi (1-jadval).

**Ekish muddati va me’yorlarining donni sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri (2022 yil).**

*1-jadval*

№	Ekish muddati	Ekish me’yori, ming dona/ga	Hosildorlik, s/ga	Quruq moddaga nisbatan, % hisobida	
				Oqsil	Moy
1	20-25 mart	500	20,3	34,8	20,4
2		350	21,4	33,9	20,7
3	5-10 aprel	500	23,8	32,7	21,1

4		350	26,4	31,0	21,5
5	20-25 aprel	500	21,7	31,4	20,9
6		350	22,9	30,5	21,2

20-25 mart sanasida ekilgan variantda soyaning gullash-dukkaklash fazasida havo harorati o'rtacha 32-34 °C, havoning nisbiy namligi esa nisbatan quruq 27-32 % bo'lgan. Bu esa ushbu muddatda ekilgan variantlardagi soya doni tarkibida moy miqdorining keyingi muddatlarda ekilgan variantlarga nisbatan kam bo'lishiga olib kelgan. O'simlikning vegetatsiya davrida havo haroratining nisbatan yuqori bo'lishi, uning fazalararo rivojlanish davomiyligini va vegetatsiya davrining qisqarishiga, bu esa o'z navbatida hosildorlikning kamayishiga hamda donning kimyoviy tarkibiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday natija tajribamizning 20-25 aprel sanasida ekilgan variantlarida ham kuzatilib, don tarkibidagi moy miqdori 500 ming dona/ga me'yorda ekilgan variantda 20,9 % bo'ldi.

**Xulosa.** Soya doni tarkibidagi moy miqdori ekish muddatiga bog'liq holda o'zgaradi. Soyaning gullash-dukkaklash davrida havo harorati va nisbiy namlik optimal bo'lishi uchun ekish muddatini to'g'ri tanlash lozim. Surxondaryo viloyatining taqir-o'tloqi tuproqlari sharoitida soya 5-10 aprel sanasida ekilganda don tarkibidagi moy miqdorining oshishiga erishiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atabaeva X.N., Soya. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2004 yil.
2. Овсянников, В. А., Влияние сроков, способов и норм посева на урожайность и качество семян сои в Приобской лесостепи Алтайского края [Электронный ресурс]: Дис. ... канд. с.-х. наук 06.01. О? .-М.: РГБ, 2005 (Из фондов Российской Государственной Библиотеки)
3. Кашеваров Н.И, Полишук АА, Кашеварова НН. Влияние способов посева и норм высева семян на продуктивность сои на зерно в лесостепи Западной Сибири // 400 лет земледелия Омского Прииртышья : материалы региональной научно-практической конференции, Омск .-2000.-е, 52-53.